

MUHANDISLIK

& IQTISODIYOT

№9

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

2025
sentyabr



Milliy nashrlar

OAK: <https://oak.uz/pages/4802>

05.00.00 – Texnika fanlari

08.00.00 – Iqtisodiyot fanlar



Google
Scholar

OPEN ACCESS

ULRICHSWEB™
GLOBAL SERIALS DIRECTORY

Academic
Resource
Index
ResearchBib

ISSN
INTERNATIONAL
STANDARD
SERIAL
NUMBER
INTERNATIONAL CENTRE

CYBERLENINKA

OpenAIRE


ROAD

INDEX COPERNICUS
INTERNATIONAL

BASE

Crossref

НАУЧНАЯ ЭЛЕКТРОННАЯ
БИБЛИОТЕКА
LIBRARY.RU



РЭУ.РФ
РОССИЙСКИЙ ЭКОНОМИЧЕСКИЙ УНИВЕРСИТЕТ
ИМЕНИ Г.В. ПЛЕХАНОВА
ТАШКЕНТСКИЙ ФИЛИАЛ



muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

*Elektron nashr,
255 sahifa, sentyabr, 2025-yil.*

Bosh muharrir:

Zokirova Nodira Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, DSc, professor

Bosh muharrir o'rinbosari:

Shakarov Zafar G'afarovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori, PhD, dotsent

Tahrir hay'ati:

Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'z FA akademigi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Sharipov Kongratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori, professor

Maxkamov Baxtiyor Shuxratovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shaumarov Said Sanatovich, texnika fanlari doktori, professor

Turayev Bahodir Xatamovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Nasimov Dilmurod Abdulloyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Allayeva Gulchexra Jalgasovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Arabov Nurali Uralovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Maxmudov Odiljon Xolmirzayevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Xamrayeva Sayyora Nasimovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bobonazarova Jamila Xolmurodovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Irmatova Aziza Baxromovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bo'taboyev Mahammadjon To'ychiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shamshiyeva Nargizaxon Nosirxuja kizi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor,

Xolmuxamedov Muhsinjon Murodullayevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Xodjayeva Nodiraxon Abdurashidovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Amanov Otabek Amankulovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Qurbonov Samandar Pulatovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Zikriyoyev Aziz Sadulloyevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Tabayev Azamat Zaripbayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sxay Lana Aleksandrovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Ismoilova Gulnora Fayzullayevna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Djumaniyazov Umrbek Ilxamovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kasimova Nargiza Sabitdjanovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kalanova Moxigul Baxritdinovna, dotsent

Ashurzoda Luiza Muxtarovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sharipov Sardor Begmaxmat o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sharipov Botirali Roxataliyevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor

Tursunov Ulug'bek Sativoldiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Bauyetdinov Majit Janizaqovich, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti dotsenti, PhD

Botirov Bozorbek Musurmon o'g'li, Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sultonov Shavkatjon Abdullayevich, Kimyo fanlari doktori, (DSc)

Jo'raeva Malohat Muhammadovna, filologiya fanlari doktori (DSc), professor.

muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

- 05.01.00 – Axborot texnologiyalari, boshqaruv va kompyuter grafikasi
- 05.01.01 – Muhandislik geometriyasi va kompyuter grafikasi. Audio va video texnologiyalari
- 05.01.02 – Tizimli tahlil, boshqaruv va axborotni qayta ishlash
- 05.01.03 – Informatikaning nazariy asoslari
- 05.01.04 – Hisoblash mashinalari, majmualari va kompyuter tarmoqlarining matematik va dasturiy ta'minoti
- 05.01.05 – Axborotlarni himoyalash usullari va tizimlari. Axborot xavfsizligi
- 05.01.06 – Hisoblash texnikasi va boshqaruv tizimlarining elementlari va qurilmalari
- 05.01.07 – Matematik modellash
- 05.01.11 – Raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt
- 05.02.00 – Mashinasozlik va mashinashunoslik
- 05.02.08 – Yer usti majmualari va uchish apparatlari
- 05.03.02 – Metrologiya va metrologiya ta'minoti
- 05.04.01 – Telekommunikatsiya va kompyuter tizimlari, telekommunikatsiya tarmoqlari va qurilmalari. Axborotlarni taqsimlash
- 05.05.03 – Yorug'lik texnikasi. Maxsus yoritish texnologiyasi
- 05.05.05 – Issiqlik texnikasining nazariy asoslari
- 05.05.06 – Qayta tiklanadigan energiya turlari asosidagi energiya qurilmalari
- 05.06.01 – To'qimachilik va yengil sanoat ishlab chiqarishlari materialshunosligi
- 05.08.03 – Temir yo'l transportini ishlatish
- 05.09.01 – Qurilish konstruksiyalari, bino va inshootlar
- 05.09.04 – Suv ta'minoti. Kanalizatsiya. Suv havzalarini muhofazalovchi qurilish tizimlari
- 10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog'ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik
- 10.00.04 – Yevropa, Amerika va Avstraliya xalqlari tili va adabiyoti
- 08.00.01 – Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 – Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 – Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 – Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 – Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 – Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 – Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 – Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 – Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 – Marketing
- 08.00.12 – Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 – Menejment
- 08.00.14 – Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 – Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 – Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 – Turizm va mehmonxona faoliyati

Ma'lumot uchun, OAK

Rayosatining 2024-yil 28-avgustdagi 360/5-son qarori bilan "Dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro'yxati"ga texnika va iqtisodiyot fanlari bo'yicha "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali ro'yxatga kiritilgan.

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz:

1. Toshkent shahridagi G.V.Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti
2. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
3. Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti" milliy tadqiqot universiteti
4. Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti
5. Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti
6. Toshkent davlat transport universiteti
7. Toshkent arxitektura-qurilish universiteti
8. Toshkent kimyo-texnologiya universiteti
9. Jizzax politexnika instituti



MUNDARIJA

Olmazor tumanining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish ko'rsatkichlari va boshqaruv tizimini tahlil qilish	12
Muminov Fazliddin Xusniddin o'g'li	
Transport va logistika sohalarida sun'iy intellektni qo'llash istiqbollari	19
Usmonov Abbos Valijon o'g'li	
Using matrix analysis methods in marketing strategy in manufacturing enterprises	23
Sheraliev Axror Sodiqovich	
Yer osti konlari suvlari haydash tizimida ejektorli nasoslarni qo'llash imkoniyatlarini tadqiq qilish	30
Xatamova Dilshoda Narmuratovna, Yuldasheva Mohinur Abduxakim qizi	
O'zbekiston Respublikasi tijorat banklari kreditlash amaliyotining me'yoriy jihatlar va huquqiy asoslari	37
Kaxxarov Ulug'bek Xalmatovich	
Eksport salohiyatini boshqarishda ishlab chiqarish faoliyatini baholash metodologiyasi	42
Qodirov Humoyun Tolibjon o'g'li	
Xizmat ko'rsatish korxonalarining raqamli iqtisodiyotga o'tishida xodimlarning mehnat munosabatlari	46
Kurbonova Raxima Jamshedovna	
Transport tizimining Markaziy Osiyo mamlakalarining milliy iqtisodiy o'sishga ta'sirini hozirgi holati	49
Narziyev Umidjon Baxrillayevich	
Loyiha risklarini boshqarishda risklarni samarali kamaytirish usullari va innovatsion yondashuvlar	54
Marufhanov Davron Xasanovich	
Интеграция ESG-факторов в страховой сектор: возможности, барьеры и развитие рынка	58
Юсуфов Асфандиёр Элдор угли	
Erkin iqtisodiy zonalarda investitsiya loyihalarini samarali moliyalashtirish yo'nalishlari	63
Yuldashev Baxtiyor Gayradjonovich	
Oliy ta'lim tashkilotlarida daromadlar va xarajatlarni shakllantirish konsepsiyasi	67
Kurbanov Jaloladdin Yuldashbayevich	
"Intellectual mulk", "Intellectual kapital", "Nomoddiy aktiv" tushunchalari o'rtasidagi munosabat hamda ulardagi o'zaro bog'liqlik	73
N.D.Maxmudova	
Temir yo'l vokzallarida qo'shimcha xizmatlar rivojlanishi: iqtisodiy samaradorlik va moliyaviy barqarorlik omili	77
Iskandarov Kudrat Shuxratovich	
Iqtisodiyotning agrar sektori salohiyatini rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari	83
Bekmirzayev Mirzoxid Adashaliyevich	
Rivojlangan mamlakatlar tajribasi asosida yashirin iqtisodiyotni fiskal vositalar bilan tartibga solish strategiyasi	87
Ergasheva Malikaxon Avazxon qizi	
Iqtisodiyotning real sektorida investitsion loyihalarni moliyalashtirishdagi muammolar	91
Qosimova Lola Sultanovna	
Mashinasozlik sanoati tarmog'ini rivojlantirishda yashil texnologiyalarni tadbiq etish usullari va yo'llari	96
Xursandov Komiljon Maxmatkulovich	
Innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish sharoitida mintaqalar ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishidagi qiyinchiliklar va imkoniyatlar	100
Rajabov Alibek Xushnadbekovich	



Ways to enhance financial transparency in utility service organizations through the digitalization of internal audit mechanisms.....	106
Primova Shakhnoza Komiljonovna	
Temir oksidli pigmentlarning ishlab chiqarish manbalari va jahon bozorida rivojlanish tendensiyalari	110
Askarova Nilufar Musurmanovna, Axmedova Nigora Erkin qizi	
Potential GDP Estimation and Output Gaps in Emerging Economies: A Comparative Review	120
Mukhammedova Azizakhon Ikromjon kizi	
Tijorat banklari likvidligiga indikativ foizlarning ta'sirini baholash.....	124
Tursunpo'latov Sohibnazar Kasimjon o'g'li	
Respublikamizda yetishtirilayotgan jun xomashyosining miqdori va texnologik xususiyatlari tahlili	131
Ismoyilov I.B., Qayumov J.A., Ismoyilov F.B., Qo'ldoshev E.I.	
Mahalla instituti asosida kambag'allikni qisqartirishda targetlash mexanizmlarining samaradorligi	137
Baratov J.N.	
Tijorat banklarida aktivlar boshqaruvini tashkil etish mexanizmlari	144
To'ychiyev Otabek Shamshiyevich	
Оптимизация жилищной инфраструктуры с учетом инсоляции и урбанизации как фактор региональной экономики.....	150
Далиев Ахтам Шарафутдинович	
Harbiy ta'lim muassasalarida mashg'ulotlarni tashkil etishda intellektual o'qitish tizimlarining roli.....	154
Maxamadov Rustam Xabibullayevich, Djamatov Mustafa Xatamovich	
Valyuta operatsiyalarini amalga oshirish mexanizmlarini takomillashtirish bo'yicha xorij tajribasi.....	160
Xoshimov Og'abek Nizomjon o'g'li	
Qurilish sanoati korxonalarida innovatsiyalarni boshqarishning o'ziga xos xususiyatlari	169
Yuldasheva Kamola Miraliyevna	
Jismoniy shaxslardan undiriladigan "daromad" solig'ining iqtisodiy tahlili	173
Ergasheva Lobar Raxmatulla qizi	
Hududlarda inson salohiyatini takomillashtirish yo'llari.....	180
Tojiyeva Muhayyo Valiyevna	
Banklar reytingini prognoz qilishning ekonometrik tahlili	188
Karabaev Nodir Abduhamidovich	
Raqamli iqtisodiyot rivojida yangi bank xizmat turlarini rivojlantirish istiqbollari	201
Norov Akmal Ruzimamatovich, Norova Nozima Nabiyevena	
O'zbekistonda makroiqtisodiy barqarorlik va o'rta muddatli soliq-budjet siyosatining ahamiyati.....	207
Sharopov Dilshodjon Raxmatullayevich	
Tijorat banklarining resurs bazasini mustahkamlash muammolari va ularni raqamli texnologiyalar orqali bartaraf etish yo'llari.....	211
Mirpulatova Luiza Mansurovna	
O'zbekiston Respublikasida raqamli iqtisodiyotni rivojlantirishning iqtisodiy-ijtimoiy oqibatlarini tahlili	216
Xatamov Nurbek Ochidiyevich	
O'zbekiston turizm sohasida innovatsion faollikni oshirishning shakllari	222
Xaitov Oxunjon Nomoz o'g'li	
Turizm va mehmonxona industriyasida xizmatlar sifatini oshirishda yashil texnologiyalarni joriy etish jarayonida innovatsiyalar va tadbirkorlik amaliyotining o'rganilishi	227
Kamolova Mohinur Iskandarovna	
Davlat ulushi 50 foiz va undan yuqori bo'lgan aksiyadorlik jamiyatlarida dividend siyosati.....	239
Suyunov Otabek Shuxrat o'g'li	



Big data и искусственный интеллект как драйверы цифровой экономики	242
Бозорова Ирина Жуманазаровна	
Mahalliyashtirish asosida mahsulotlar ishlab chiqarish ko'rsatkichlari tahlili va rivojlantirish istiqbollari (Namangan viloyati misolida)	247
Mirzabaev Xusniddin Muxamadjonovich	



MAHALLIYLASHTIRISH ASOSIDA MAHSULOTLAR ISHLAB CHIQRISH KO'RSATKICHLARI TAHLILI VA RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI (NAMANGAN VILOYATI MISOLIDA)



Mirzabaev Xusniddin Muxamadjonovich

Namangan davlat texnika universiteti tayanch doktoranti (PhD)

ORCID: 0009-0006-1155-8837,

e-mail: mirzabaevhusniddin1979@gmail.com

Annotatsiya: Mazkur maqolada tadbirkorlik subyektlari tomonidan mahalliyashtirish asosida mahsulotlar ishlab chiqarish ko'rsatkichlari tahlili va kelgusida rivojlantirish yo'nalishlari hamda import o'rnini bosuvchi mahalliy mahsulotlar ishlab chiqarishni tashkil etish yuzasidan fikrlar yuritiladi. Shuningdek, ayrim mahsulot turlarini O'zbekiston bozoridagi raqobat holati, xalqaro tan olingan HHI va CR-3 ko'rsatkichlari orqali tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: kichik biznes, import geografiyasi, importga qaramlik, import o'rnini bosuvchi, mahalliy mahsulot bilan to'yinganlik darajasi, HHI va CR-3 ko'rsatkichlari, barqaror rivojlantirish, modernizatsiya, diversifikatsiya.

Abstract: This article analyzes the indicators of production of products by business entities based on localization and discusses the directions of further development and the organization of production of local import-substituting products. Also, the competitive situation of certain types of products in the Uzbek market is analyzed using internationally recognized HHI and CR-3 indicators.

Keywords: small business, import geography, import dependence, saturation level with import-substituting, local products, HHI and CR-3 indicators, sustainable development, modernization, diversification.

Аннотация: В данной статье анализируются показатели производства продукции субъектами хозяйствования на основе локализации, рассматриваются направления дальнейшего развития и организации производства местной импортозамещающей продукции. Также анализируется конкурентное положение отдельных видов продукции на рынке Узбекистана с использованием международно признанных индексов HHI и CR-3.

Ключевые слова: малый бизнес, география импорта, импортозависимость, уровень насыщения импортозамещающей продукцией местного производства, индикаторы HHI и CR-3, устойчивое развитие, модернизация, диверсификация.

KIRISH

Global iqtisodiy tebranishlar sharoitida mahalliyashtirish va import o'rnini bosish barqaror rivojlanishni ta'minlash va tashqi bozorlarga qaramlikni kamaytirishning muhim strategiyasiga aylandi.

O'zbekistonda, xususan, Namangan viloyatida kichik biznesni rivojlantirish, hududlarni sanoatlashtirish, import o'rnini bosuvchi mahsulotlar ishlab chiqarishga alohida e'tibor qaratilayotgan keng ko'lamli islohotlar doirasida mahalliyashtirish siyosati jadal rivojlanmoqda. Biroq hozirgi taraqqiyot jarayonlariga qaramay, ayrim hududlarda eskirgan texnologiyalar, cheklangan raqobatbardoshlik va rivojlanmagan infratuzilma kabi muammolar saqlanib qolmoqda.

Iqtisodiy tadqiqotlarda mahalliyashtirish keng muhokama qilinsa-da, uning O'zbekistonda qo'llanilishi, ayniqsa, kichik biznesning hissasi va mintaqaviy sanoat dinamikasi bo'yicha yetarlicha empirik tahlil qilinmagan.



Mazkur tadqiqotda Namangan viloyatida mahalliyashtirish asosida mahsulot ishlab chiqarish ko'rsatkichlari tahlil qilinib, kichik biznesni import o'rnini bosishga jalb etish samaradorligi, mazkur yo'nalishni rivojlantirishning strategik yo'nalishlari belgilab berildi.

Hududning import va eksport tahlili doimiy ravishda xorijiy mahsulotlarga qay darajada qaramlligini, shu bilan birga, import o'rnini bosuvchi ishlab chiqarish, xususan, to'qimachilik, elektrotexnika, qurilish, farmatsevtika va charm mahsulotlari kabi tarmoqlarda salmoqli salohiyat mavjudligini ko'rsatadi.

Mahsulotni ishlab chiqarish bozoridagi raqobat holati xalqaro tan olingan HHI va CR-3 ko'rsatkichlari orqali bozorning rivojlanmagan tuzilmasini taxlil qilinib, yangi loyihalar uchun imkoniyatlarni baholanadi. Tadqiqot ishlab chiqarishni mahalliyashtirishni tashkil etish, bozor tahlili, dizayn, investitsiya rejalashtirish, muvofiqlik, brending va barqarorlikni birlashtirish uchun bosqichma-bosqich asosni taqdim etadi. Mahalliyashtirish strategiyasining kichik biznes va sanoat zonalarini orqali samarali amalga oshirilishi importga qaramlikni kamaytirish, ish o'rinlari yaratish, sarmoyalarni jalb etish, hududiy iqtisodiy o'sishni mustahkamlash imkonini beradi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

Mahalliyashtirishni tadqiq etgan olim Leon Valras (Fransiya) qarashlarida borliqda iqtisodiy muvozanatlilik modelini bayon etib, uning asosi sifatida eksport va import operatsiyalariga urg'u bergan. Uning nazariyasiga ko'ra har bir hudud o'zining ixtisosligidagi mahsulot ishlab chiqarishda davom etsa, hududda yashovchilarning boshqa ehtiyojlarini inobatga olinmasa, bu holatda iqtisodiy muvozanat yo'qolishiga olib keladi. Shu o'rinda boshqa ehtiyojlarni import mahsulotlar orqali qondirilsa bu jarayonda iqtisodiy muvozanat uzoq muddat davom etmasdan, o'zining salbiy oqibatlarini keltirib chiqaradi.¹ Bu kabi salbiy oqibatlarga import qilingan mahsulotlarning narxini ishlab chiqaruvchi tomonidan monopolistik ustunlikka ega bo'lishi, bojxona tizimidagi tartiblar sababli mavsumiy mahsulotlarning yetkazilishidagi uzilishlar shu turdagi ehtiyojlardan voz kechishga yoki YalMning ulushi kamayishiga olib keladi. Yuqoridagidan kelib chiqib L.Valras ishlab chiqarish faoliyatini ushbu turdagi mahsulot mavjud bo'lmagan hududlarda tashkil etishni, bu kabi ishlab chiqaruvchilarni soni ko'paytirish, monopoliya xolatini oldini olish uchun raqobatni rivojlantirish haqidagi fikrlarni ilgari surgan.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotda quyidagi ilmiy-uslubiy yondashuvlar va metodlardan foydalanildi, jumladan, tahlil va sintez usuli, solishtirma tahlil, statistik tahlil, grafik va jadval shaklidagi ifoda hamda boshqalar.

TAHLIL VA NATIJALAR

Bugungi glaballashuv sharoitida O'zbekiston iqtisodiyotini barqaror o'sishini ta'minlashning eng samarali yo'li – ichki imkoniyatlarni ishga solish, ya'ni import bo'layotgan tayyor mahsulotlarni mamlakatda ishlab chiqarish va mahalliy sanoatni yanada rivojlantirishdan iborat². O'zbekistonda iqtisodiy islohotlarning yangi bosqichida mahalliy xomashyo bazasidan samarali foydalanish va ilg'or texnologiyalarga asoslangan sanoatni rivojlantirish³ negizida hududlarning ishlab chiqarish salohiyatini to'liq ishga solish, importga qaramlikni kamaytirishga alohida urg'u berilmoqda.

Mahalliyashtirish asosida mahsulot ishlab chiqarishni rivojlantirish jarayonlarini kichik biznes subyektlari orqali amalga oshirish katta natijalarni olib kelishi mumkin. Chunki, tashkil etishga katta mablag' talab qilinmasligi, o'zgarishlarga tez moslashishi, yangilik va raqobatdan qo'rqmasligi, muhimi, odamlarni ish bilan ta'minlab, daromadini ko'paytirishda eng faol soha ham bu – kichik biznes bo'lmoqda. Ko'p hollarda rivojlanayotgan mamlakatlar iqtisodiyotining lokomotivi hisoblanadi. Kichik biznes subyektlari O'zbekiston yalpi ichki mahsulotining 56 foizdan ortig'ini va bandlikning 78 foizini tashkil etib⁴, ushbu jarayonda muhim o'rin tutmoqda. Biz tadqiqot olib borayotgan Namangan viloyatida bu ko'rsatkich yalpi ichki mahsulotining 73,4 foizdan ortig'ini va bandlikning 82 foizini tashkil etmoqda.

Iqtisodiyotning etakchi soha va tarmoqlarida kichik tadbirkorlik ulushining oshishi iqtisodiy o'sish va ijtimoiy barqarorlik ta'minlanishining mustahkam poydevori hisoblanadi. O'zbekistonda kichik biznes vakillari ish o'rnini, investitsiya, innovatsiya, raqobat, qo'shilgan qiymat va eksportni ko'paytirishga eng katta turtki berayotgan yo'nalishga aylandi. Kichik va o'rta tadbirkorlar soni besh yilda 2 karra ko'paydi. Ularda 10,5 million fuqarolar daromad topmoqda, iqtisodiyotning yarmidan ortig'i, sanoat va eksportning uchdan biri kichik va o'rta tadbirkorlar

1 Востриков А.С. Синтез систем регулирования методом локализации. - Новосибирск: НГТУ. - 2007. - 251 с

2 O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev raisligida 2022-yil 11-mart kuni sanoat kooperatsiyasi va mahalliyashtirishni yanada kengaytirish masalalari bo'yicha videoselektor yig'ilishi ma'ruzasi.


3 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi "O'zbekiston-2030" strategiyasi to'g'risidagi PF-158 Farmoni// <https://lex.uz/docs/6600413>

4 <https://stat.uz/uz/rasmiy-statistika/small-business-and-entrepreneurship-2>



hissasiga to'g'ri kelayotganligi yaratilayotgan keng ko'lamli ijobiy islohatlar natijasidir⁵. O'zbekistonda 2024-yil yakunlari bo'yicha kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan 753226,9 mlrd so'm miqdorida qo'shilgan qiymat yoki iqtisodiyotdagi yalpi qo'shilgan qiymatning 54,3 foizi yaratilgan. Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan jami yaratilgan qo'shilgan qiymatlar sohalar kesimida taxlil qilinganda 33,9 foizi qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi, 12,6 foizi sanoat, 10,1 foizi qurilish tarmoqlari va 43,4 foizi xizmatlar sohasiga to'g'ri keldi.

Namangan viloyatida 2024-yil davomida jami 745,1 mln. dollar tovarlar importini amalga oshirilib, 2023-yil mos davriga 828,6 mln. dollarni tashkil qilib 83,5 mil.dollarga kamaygan.



1-rasm Namangan viloyatiga 2024-yil davomida import qilingan tovarlarni mahsulot turlari bo'yicha tahlil, mln. dollar⁶

Ushbu tovarlar dunyoning 58 ta davlatlaridan import qilingan bo'lib asosan Xitoy (36,5%), Rossiya (11,3%), Xindiston (9,6%), Qozog'iston (7,4%), Turkiya (6,5%), Qirg'iziston (4,5%) va Germaniya (4,4%) davlatlari jami viloyat import ulushlarining nisbatan qatta qismini tashkil qilmoqda.

Shu o'rinda Namangan viloyatining 2024-yil yakunlari bo'yicha eksporti salohiyatini ham ko'radigan bo'lsak jami 596,5 mil. dollarni tashkil etib, dunyoning 51 ta davlatlariga eksport qilingan. Eksportning katta ulushi Rossiya (58,0%), Xitoy (8,0%), Qirg'iziston (7,2%), Qozog'iston (4,9%), Turkiya (4,0%) va Germaniya (2,4%) davlatlarining xissasiga to'g'ri kelmoqda. Ushbu ma'lumotlarda 2024 yil yakunlari bo'yicha Namangan viloyatida importning ulushi yuqoriligi ko'rilib, viloyatda mahalliyashtirish ya'ni import o'rnini bosuvchi mahsulot ishlab chiqarish imkoniyatlari kengligi ma'lum bo'lmoqda.

Mamlakatimizda tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlashga berilayotgan e'tibor natijasida mahalliyashtirish jarayonlari ham jadal sur'atlarda rivojlanmoqda. Namangan viloyatida yirik tarmoq korxonalari soni ozligi sababli asosiy e'tibor o'rta va kichik korxonalarni rivojlantirish hisobiga ishlab chiqarish hajmlarini oshirishga qaratilgan.

O'zbekistonda "Erkin iqtisodiy zonalar" (EIZ) va "Kichik sanoat zonalar" (KSZ) iqtisodiyotni diversifikatsiya qilish, mahalliy ishlab chiqarishni rivojlantirish, investitsiyalarni jalb etish va eksport xajmini ko'paytirish kabi maqsadlarda joriy etilgan institutsional mexanizm bo'lib bu ikki vositaning huquqiy asoslari, faoliyat yo'nalishlari va ularning mahalliyashtirish jarayoniga ta'siri ko'rib chiqamiz.

Erkin iqtisodiy va kichik sanoat zonalar hududlarida joylashtirish uchun loyihalarni aniq mezonlar asosida tanlanmoqda hamda investitsiya loyihalarini ko'rib chiqishda yangidan tashkil etilayotgan ish o'rinlari soni, salohiyatli xorijiy sherik va investor-mamlakatning mavjudligi, ishlab chiqarilayotgan mahsulotning ichki va

⁵ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2025 yil 19 mart kungi kichik va o'rta biznes vakillari bilan o'tkazilgan uchrashuvdagi nutqi.

⁶ Namangan viloyat hokimligining matbuot xizmati ma'lumotlari asosida



tashqi bozorlarda talab qilinishi, eksport hajmi, shuningdek, ishlab chiqarishni mahalliyashtirish darajasi hisobga olinmoqda.

Kichik sanoat zonalarini hududida joylashtirish uchun tadbirkorlik sub'ektlari tomonidan taklif etilayotgan loyihalarga ko'yilgan asosiy talablardan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish, yangi ish o'rinlarini tashkil qilish, import o'rnini bosadigan va (yoki) eksportga yo'naltirilgan tayyor mahsulotlar turlari, materiallar va butlovchi buyumlarni ishlab chiqarish bo'yicha loyihalarini amalga oshirish nazarda tutilgan.

Erkin iqtisodiy zona bu yangi ishlab chiqarish quvvatlarini barpo etish, yuqori texnologik ishlab chiqarishni rivojlantirish, zamonaviy raqobatbardosh, import o'rnini bosuvchi, eksportga yo'naltirilgan tayyor sanoat mahsulotini ishlab chiqarishni o'zlashtirishga faol jalb etish, shuningdek ishlab chiqarish, muhandislik-kommunikatsiya, yo'l-transport, ijtimoiy infratuzilmani va logistika xizmatlarini rivojlantirishni ta'minlash maqsadlarida tashkil etiladigan hudud⁸ hisoblanadi.

Mamlakatimizda tadbirkorlarga munosib sharoit yaratish, iqtisodiyot tarmoqlarini diversifikatsiya qilish va aholi bandligini ta'minlash maqsadida joylarda texnopark va kichik sanoat zonalarini tashkil etilmoqda. Namangan viloyatida bugungi kunda 1,5 ming gektar maydonda 73 ta sanoat zonasi mavjud bo'lib, ulardan Yangi Namangan tumanida 10 gektar maydonda joylashgan "Taraqqiyot" sanoat va servis zonasida 113 ta loyiha joylashtirilgan, mazkur zonaga budjet hisobidan elektr energiyasi, ichimlik va oqova suv tarmoqlari, ichki yo'llar kabi zarur infratuzilma bilan ta'minlandi. Natijada yiliga 500 milliard so'mlik mahsulot ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish quvvati ega, 4800 ta yangi ish o'ri yaratildi⁹.

Shuningdek, "Dashtbog" kichik sanoat zonasida joylashgan "DREAM WEARS" MChJ tomonidan 3,0 mlrd. so'mlik "sendvich panel" mahsulotlari, "Muhammad Ali" MChJ tomonidan 128 mln. so'mlik to'qimachilik mahsulotlari uchun ishlatiladigan tugma va plastik ilgichlar;

"Yuksalish" kichik sanoat zonasida joylashgan "Fahr nur servis" MChJ tomonidan 7,0 mlrd. so'mlik quyosh batareyali ko'cha yoritish chiroqlari va yoritish vositalari, "FLAT TILE" MChJ tomonidan 44,5 mlrd. so'mlik kafel-keramika mahsulotlari;

"Namangan" erkin iqtisodiy zonasida joylashgan "Tai Chang Special Steel" MChJ QK tomonidan 305,7 mlrd. so'mlik metall profil mahsulotlari, "Ifoda Agro Kimyo Himoya" MChJ QK tomonidan 65,1 mlrd. so'mlik o'simliklarni ximoya qilish vositalari mahsulotlari;

"Kosonsoy-farm" erkin iqtisodiy zonasida joylashgan "Axsikent sof sanoat" MChJ tomonidan 7,7 mlrd. so'mlik gigienik qo'lqop mahsulotlari;

"Davlatobod" kichik sanoat zonasida joylashgan "Nam elektro" MChJ tomonidan 732 mln. so'mlik yuqori kuchlanishdagi elektr tarmoqlari ehtiyot qismlari mahsulotlari ishlab chiqarildi¹⁰. 2024-yil yakuni bilan 111 ta turdagi loyiha doirasida qiymati 2 721,3 mlrd. so'mlik mahalliyashtirilgan mahsulotlar ishlab chiqarilib, 2023-yilga nisbatan 144,2 foiz o'sishi ta'minlandi. Ishlab chiqarilgan mahsulotlarning import o'rnini bosish samaradorligi 210,9 mln. dollarni tashkil etgan.

Shu bilan birgalikda, 25 ta tadbirkorlik subektlari tomonidan 33 turdagi mahsulot ishlab chiqarish yo'lga qo'yilib bularga quyosh batareyali ko'cha yoritish chiroqlari, tugmalar, plastik ilgich, sun'iy sintetik tola, polietilen quvurlar, sport kiyimlar va buyumlari, yuqori kuchlanishdagi elektr tarmoqlari ehtiyot qismlari, tibbiyot uchun bir martalik probirkalar va qo'lqoplar, elektrod, gazoanalizatorlar, avtomobillar uchun elektron butlovchi qismlari, bolalar o'yinchoqlari, havo-moy sovutkichli kondensatorlar, emallangan vanna va dush poddonlari, yelimlar (silikat natriya), maxsus texnikalar (mototsikl), avtomobillar uchun akkumulyatorlar, poyabzal tagliklari va boshqalar ishlab chiqarilmoqda.

Davlat dasturlari doirasida Namangan viloyatida amalga oshirilgan yangi loyihalar va loyihalarni kengaytirish natijasida import o'rnini bosuvchi pektin (yopishqoqlikni oshirish va oziq-ovqat sanoati mahsuloti) va biologik aktiv qo'shimchalar, mineral o'g'itlar, sintetik tolali mato, suv nasoslari va elektro dvigatellar, farmasevtika mahsulotlari, trisikl va litiyli akkumulyatorlar kabi yuqori qo'shilgan qiymatli mahsulotlari ishlab chiqarilishi yo'lga qo'yildi.

Ilmiy tadqiqotimizda Namangan viloyatida joylashgan mahalliyashtirilgan mahsulot ya'ni keramik vannalar va dush uchun kabinalar ishlab chiqaruvchi "Musaffo polimer" MChJ faoliyati taxlil qilindi. Shu nuqtai nazardan ushbu turdagi mahsulotlar bozori o'rganildi.

O'rganish Milliy statistika qo'mitasining 2023-yil uchun sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmlari ma'lumotlar bazasi hamda Bojxona qo'mitasining import va eksport ma'lumotlariga asosan o'tkazildi.

Keramik vannalar, rakovinalar va unitazlarning import va eksport holati: Hisobot davrida 267 ta korxona tomonidan 20 ta davlatdan qiymati 17 mln AQSh dollariga teng bo'lgan 723,8 ming dona keramik vannalar,

7 O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 09.03.2020 yildagi 134-sonli qarori

8 O'zbekiston Respublikasining Qonuni, 17.02.2020 yildagi O'RQ-604-son

9 <https://president.uz/uz/lists/view/8488>

10 Namangan viloyat hokimligining matbuot xizmati ma'lumotlari asosida



rakovinalar va unitazlar import qilingan. Import qilingan mahsulotlarning 51 foizi – Xitoy, 13 foizi – Turkiya, 12 foizi – Eron, 9 foizi – Germaniya, 15 foizi esa boshqa 16 ta davlatlar hissasiga to'g'ri keladi.

Import asosida olib kelingan keramik vannalar, rakovinalar va unitazlarning o'rtacha narxi 1 birlik uchun 23,5 dollarga to'g'ri kelgan. Importning konsentratsiya darajasi o'rganilganda eng yirik 5 ta import qiluvchi korxona hissasiga jami importning 36 foizi to'g'ri kelgan.

2023-yilda 32 ta korxona tomonidan 6 ta mamlakatga qiymati 3,1 mln AQSh dollariga teng bo'lgan 179,5 ming dona mahsulotlar eksport qilingan. Eksport qilingan mahsulotlarning asosiy qismi Qozog'iston (79 foiz), Tojikiston (9 foiz) va Rossiya (6 foiz) hissasiga to'g'ri keladi. Eksport qilingan mazkur mahsulotlarning o'rtacha narxi 1 birlik uchun 17,2 dollarga to'g'ri kelgan.

Sanoat kooperatsiyasi asosida tayyor mahsulotlar, butlovchi buyumlar va materiallar ishlab chiqarishni mahalliyashtirish dasturiga kiritish uchun loyihalarni ko'rib chiqishda Ichki bozorning mamlakatimizda ishlab chiqarilgan tovarlar bilan to'lganligini aniqlash tartibiga¹¹ asosan taxlil qilinganda 2023-yil davomida 33 ta xo'jalik yurituvchi subektlar tomonidan qiymati 183,7 mlrd so'mlik 996,6 ming dona keramik vannalar, rakovinalar va unitazlar ishlab chiqarilgan. Mazkur ma'lumotlar asosida keramik vannalar, rakovinalar va unitazlarning mamlakatimizda ishlab chiqarilgan tovarlar bilan to'lganligi darajasi 2023-yilda 64,7 foizni tashkil etganligi aniqlandi.

Olib borilgan tahlillar doirasida keramik vannalar, rakovinalar va unitazlar ishlab chiqarish bozoridagi raqobat holati xalqaro tan olingan HHI (Herfindal-Hirshman indeksi) va CR - 3 ko'rsatkichlari orqali baholandi. Xo'jalik yurituvchi sub'ektlar soni va ishlab chiqarish hajmlari ma'lumotlari asosida HHI hisoblanganda, indeks natijasi 3098 punktga teng bo'lganligi va ushbu tovar bozorida raqobat muhiti rivojlanmaganligi aniqlandi.¹²

Ma'lumot uchun: HHI (Herfindal-Hirshman indeksi) bozordagi raqobat muhitini baholash va konsentratsiya darajasini aniqlash uchun foydalaniladi. Unga ko'ra, HHI ko'rsatkichi 0 dan 1500 punktga bo'lganda raqobat muhiti rivojlangan, 1500 dan 2500 punktga bo'lganda raqobat muhiti yetarlicha rivojlanmagan, 2500 dan 10000 punktga bo'lganda bozor raqobat muhiti rivojlanmagan hisoblanadi.

Shuningdek, ichki bozorda keramik vannalar, rakovinalar va unitazlar CR 3 ko'rsatkichi 68 foizga teng bo'lib, CR 3 ko'rsatkichi – mahalliy ishlab chiqarish bozoridagi eng yirik 3 ta korxonaning bozor ulushlari yig'indisiga teng. HHI va CR 3 ko'rsatkichlari keramikadan tayyorlangan rakovinalar, umivalniklar, vannalar va unitazlar ishlab chiqarish bozori raqobat muhiti rivojlanmagan bozor deb tasniflanishini ko'rsatmoqda.

Tahlil natijalariga ko'ra, mazkur tovar bozorlarida mahalliy mahsulotlar bilan to'yinganlik darajasi past bo'lib, yangi ishlab chiqarish loyihalarni amalga oshirish imkoniyatlari mavjud hisoblanadi.

Namangan viloyatida asosan, to'qimachilik va tekstil mahsulotlari ishlab chiqarishi jadal sur'atlar bilan rivojlanib, ishlab chiqarilgan mahsulotlar xorijiy davlatlarga eksport qilinmoqda. Shu bilan birga Namangan viloyatida yangi drayverlarni rivojlantirish maqsadida tadbirkorlar tomonidan elektrotexnika, farmasevtika va charm-poyabzal sohaslarini rivojlantirishlari uchun keng imkoniyatlar yaratib berish lozim.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Mahalliyashtirish ixtisoslashuv va hududiy mehnat taqsimoti bilan uzviy bog'liq hamda u bilan yonma yon harakatda bo'ladi. Mahalliyashtirish jarayoni yangi tovarlar va xizmatlar ishlab chiqarishda va mamlakatning investitsion jozibadorligini oshirish niyati o'rin tutadi. Ayni vaqtda bunday tovar va xizmatlar ishlab chiqarishni o'zlashtirish ishlab chiqarish jarayonini tashkil etishga yangicha yondashuvlarni joriy etishni taqozo etadi. Bu esa o'z navbatida mintaqa infratuzilmasini rivojlantirish, yangi ish o'rinlari yaratish orqali bandlik muammosini hal etish, mahalliy byudjetga tushumlar hajmini oshishiga ijobiy ta'sir etadi.

Sohani rivojlantirish maqsadida, quyidagi tadbirlar amalga oshiriladi. Xususan, Namangan shahar "Barkamol avlod" MFY hududidagi 5 gektar yer maydonda "Elektrotexnika mahsulotlari" ishlab chiqarishga ixtisoslashgan "Texnopark" tashkil etilishi orqali qiymati 200 mln. dollarlik 20 ta istiqbolli loyihalarni joriy etish orqali elektrotexnika mahsulotlari importini 45 foizga qisqartirish orqali mahalliyashtirish darajasini 80 foizga yetkazish mumkin.

Yuqoridagi taxlillardan Namangan viloyatda tadbirkorlik subyektlari tomonidan import o'rnini bosuvchi mahsulot ishlab chiqarish bo'yicha keng imkoniyatlar mavjudligi ma'lum bo'lmoqda.

Tadbirkorlik subyektlari tomonidan mahalliyashtirish asosida mahsulot ishlab chiqarishni tashkil etishda quyidagi bosqichlar muhim hisoblanadi. Bu erda asosiy jihatlarga batafsil to'xtalamiz.

1. Bozor tahlil qilish; - Talabni baholash: Mahsulotga bozor talabini o'rganish. Mahalliy ishlab chiqarishni oqlaydigan sezilarli talab mavjudligini tahlil qilish.

- Raqobatchilar tahlili: Hozirgi raqobatchilarni, jumladan, import qilinadigan mahsulotlarni aniqlash. Ularning bozor ulushini, narxini va sifatini baholash.

¹¹ O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2010-yil 20-dekabrda 303-son qarori ilovasi

¹² <https://ccprc.uz/uz/menu/21>



- Iste'molchilarning mulohazalari: Mahsulotga oid iste'molchilarning fikrlari, jumladan xususiyatlar, sifat va narxlarga sezgirlik haqida ma'lumot to'plash.

2. Mahsulot ishlab chiqish; - Mahsulot dizayni: Mahsulot dizayni mahalliy iste'molchilarning ehtiyojlari va afzalliklariga javob berishiga ishonch hosil qilish.

- Sifat standartlari: Import qilinadigan mahsulotlar bilan samarali raqobatlashish uchun yuqori sifatni saqlash. Tegishli sifat standartlari va sertifikatlarini aniqlash va joriy etish choralarini ko'rish.

- Innovatsiya: Import qilingan muqobillarga nisbatan raqobatbardosh ustunlikni ta'minlaydigan har qanday potentsial innovatsiyalar yoki afzalliklarni qo'llash.

3. Tartib qoidalarga muvofiqlik; - Mahalliy qoidalar: Barcha mahalliy qoidalar va standartlarni, shu jumladan xavfsizlik, sog'liq va atrof-muhitni muhofaza qilish qoidalarini o'rganish va ularga rioya qilish.

- Import cheklovlari: Raqobat muhitiga ta'sir qilishi mumkin bo'lgan o'xshash mahsulotlarni import qilish bo'yicha har qanday tariflar, bojlar yoki cheklovlardan xabardor bo'lish.

- Intellektual mulk: Mahsulotni patentlari, savdo belgilari va boshqa intellektual mulk huquqlari orqali himoya qilish.

4. Ta'minot zanjiri boshqaruvi; - Xom ashyo: Xom ashyo zaxiralarining mavjudligi va ishonchligini ta'minlash. Mahalliy va import qilinadigan xom ashyoning narxi, sifati va izchilligini baholash.

- Logistika: Materiallarni xarid qilish va tayyor mahsulotlarni bozorga samarali va tejamkorlik bilan yetkazib berish uchun mustahkam logistika rejasini ishlab chiqish.

- Yetkazib beruvchilar bilan aloqalar: Barqaror va ishonchli ta'minot zanjirlarini mustaxkamlash uchun yetkazib beruvchilar bilan huquqiy aloqalarni o'rnatish.

5. Moliyaviy rejalashtirish; - Kapitalga qo'yiladigan talablar: Ishlab chiqarish quvvatlarini, jumladan, asbob-uskunalar, texnologiya va inson resurslarini tashkil etish uchun zarur bo'lgan dastlabki investitsiyalarni aniqlash.

- Moliyalash manbalari: Kreditlar, investorlar, grantlar yoki subsidiyalar kabi moliyalashtirish manbalarini, mahalliyashtirish dasturlariga davlat imtiyozlarini o'rganish.

- Xarajatlarni boshqarish: Ishlab chiqarish, mehnat, marketing va tarqatish xarajatlarini o'z ichiga olgan operatsion xarajatlarni rejalashtirish. Daromadlilikni saqlash uchun xarajatlarni nazorat qilish choralarini amalga oshirish.

6. Ishlab chiqarish va operatsiyalar; - Ishlab chiqarish ob'ektlari: Tegishli ishlab chiqarish ob'ektlarini qurish, sotib olish yoki ijaraga olish. Xom ashyoga yaqinlik, ishchi kuchining mavjudligi va logistika kabi joylashuv afzalliklarini tahlil qilish.

- Texnologiya va uskunalar: Yuqori sifatli ishlab chiqarish va iqtisodiy samaradorlikni ta'minlash uchun zamonaviy va samarali texnologiya va uskunalar sarmoya kiritish.

- Kadrlar: Malakali ishchilarni yollash va malaka oshirishini ta'minlash. Mehnat to'g'risidagi qonunlarga rioya qilishni ta'minlash va yaxshi mehnat sharoitlarini saqlash.

7. Marketing va sotish; - Milliy Brend yaratish: Mahalliy mahsulotning yangiligi, milliy qadriyatlarga asoslangan va boshqa afzalliklarini ta'kidlaydigan kuchli brendni ishlab chiqish.

- Narxlar strategiyasi: Iste'molchilarni import qilinadigan mahsulotlardan uzoqlashtirish va rentabellikni ta'minlash uchun raqobatbardosh narxlarni belgilang.

- Tarqatish kanallari: Maqsadli bozoringizga erishish uchun samarali tarqatish kanallarini yaratish. Bunga to'g'ridan-to'g'ri savdo, chakana sotuvchilar, ulgurji sotuvchilar yoki onlayn platformalardan samarali foydalanish.

8. Xavflarni boshqarish; - Bozor tavakkalchiliklari: Bozordagi tebranishlarni, iste'molchilarning xohish-istaklaridagi o'zgarishlarni va talabga ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan iqtisodiy sharoitlarni oldindan bilish.

- Operatsion xavflar: Ishlab chiqarish kechikishlari, ta'minot zanjiri uzilishlari va uskunalarning nosozliklari kabi operatsion xavflarni aniqlash va kamaytirish choralarini belgilash.

- Moliyaviy tavakkalchiliklar: Ehtiyotkorlik bilan byudjet tuzish, naqd pul zaxiralarini saqlash va kutilmagan xarajatlar uchun favqulodda rejalar tuzish orqali moliyaviy risklarni boshqarish.

9. Barqarorlik; - Atrof-muhitga ta'sir: Atrof-muhitga ta'sirni minimallashtirish uchun ishlab chiqarishda barqaror amaliyotlarni amalga oshirish. Bunga resurslardan samarali foydalanish, chiqindilarni boshqarish va yashil texnologiyalarni joriy etish kiradi.

- Ijtimoiy mas'uliyat : Milliy hamjamiyatni qo'llab-quvvatlovchi va korxona obro'sini oshiradigan faoliyati bilan shug'ullanish. Bunda turli xil stipendiyalar berish, laboratoriyalar va kutubxonalar, kasalxonalar qurish yoki atrof-muhitni muhofaza qilishga, ijtimoiy muhofazaga muxtojlariga turli yordamlarni tashkil etishda ishtirok etish.

10. Doimiy takomillashtirish; - Qayta aloqa mexanizmlari: Mahsulot va ishlab chiqarish jarayonlarini doimiy ravishda takomillashtirish uchun mijozlar va manfaatdor tomonlardan fikr-mulohazalarni yig'ish mexanizmlarini yaratish.



- Innovatsiya va ilmiy tadqiqot: Bozor tendentsiyalari va raqobatchilardan oldinda bo'lgan holda mahsulotni yangilash va takomillashtirish uchun ilmiy tadqiqot va ishlanmalarga sarmoya kiritish.

Yuqoridagi bosqichlar orqali tadbirkorlik subyektlari ushbu yo'nalishlarga e'tibor qaratish bilan mahalliyashtirish orqali mahsulot ishlab chiqarishni samarali tashkil etishi va amalga oshirishi, yangi ish o'rinlarini yaratilishiga, import tovarlarga qaramligini kamaytirishi, investitsiyalarni jalb qilish va milliy iqtisodiy o'sishni oshirishiga erishiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasining 17.02.2020-yildagi O'RQ-604-son Qonuni
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev raisligida 2022-yil 11-mart kuni Sanoat kooperatsiyasi va mahalliyashtirishni yanada kengaytirish masalalari bo'yicha videoselektor yig'ilishi ma'ruzasi.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning mamlakatimiz tadbirkorlari bilan 20.08.2024-yildagi ochiq muloqot shaklida o'tkazilgan uchrashuvidagi nutqi.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Sanoat kooperatsiyasi va mahalliyashtirishni yanada kengaytirish masalalari bo'yicha videoselektor yig'ilishidagi ma'ruzasi. 01.03.2024-yil.
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2025-yil 16-sentabr kuni Namangan viloyatini iqtisodiy-ijtimoiy rivojlantirish chora-tadbirlari muhokamasi yuzasidan yig'ilishidagi ma'ruzasi. 16.09.2025 yil.
6. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi. – Toshkent: "O'zbekiston" NMIU, 2022.
7. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Iqtisodiy o'sish sur'atlarini ta'minlash yuzasidan birinchi yarim yillikda amalga oshirilgan ishlar va kelgusi vazifalarga bag'ishlangan videoselektor yig'ilishidagi ma'ruzasi 17.07.2024-yil.
8. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi ma'lumotlari.
9. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 09.03.2020-yildagi 134-sonli qarori
10. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2010-yil 20-dekabrdagi 303-son qarori
11. Razov P.V., Proxorova I.G. Kichik va o'rta biznesni qo'llab-quvvatlashda import o'rnini bosishning o'rnini. Ijtimoiy-siyosiy fanlar. 2023. jild. 13. № 5. Pr. 96–101. (Rus tilida) DOI: 10.33693/2223-0092-2023-13-5-96-101. EDN: NIHCLY
12. Namangan viloyat hokimligining matbuot xizmati ma'lumotlari.
13. Востриков А.С. Синтез систем регулирования методом локализации. - Новосибирск: НГТУ. - 2007. - 251 с

muhandislik **& iqtisodiyot**

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir Alibekov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2025. № 9

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№S-5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: №095310.

**Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod
tumani 15-mavze 19-uy**





+998 93 718 40 07



<https://muhandislik-iqtisodiyot.uz/index.php/journal>



t.me/yait_2100